

MATN TAVSIFI VA MATN TURLARI

To'lanboyeva Mohinur Xurshidbek qizi

*Andijon davlat chet tillari universiteti
Roman- german va slavyan tillari fakulteti
Xorijiy til va adabiyoti : rus tili
yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Annotatsiya : *ushbu maqola matnga immanent va reprezentativ yondashuv, tilshunos olimlarning matnga bergan tavsiflari, matn tiplari va birliklari, hamda matnda bog'lanishlilik va yaxlitlik haqida.*

Kalit so'zlar : *matn, matn turlari, immanent, reprezentativ, matn lingvistikasi, psixolingvistika, mikromatn, makromatn, matn koordinatsiyasi.*

Matn- (lotincha-„textus“-mato, birikma) ma'lum moddiy tashuvchiga bog'langan inson fikri, belgilarning umumiy izchil va to'liq ketma-ketligi.

„Matn“ tushunchasining ikkita asosiy talqini mavjud : immanent (kengaytirilgan falsafiy qarashlarga yo'g'rilgan) va reprezentativ (asosan, xususiy munosabat aks etgan). Immanent yondashuv matnda voqelikka xolis munosabat bildirilib, uning ichki tuzilishini, uchinchi –shaxs tomonidan yoritishga e'tibor qaratishni nazarda tutadi. Reprezentativ yondashuv esa matnni tashqi voqelik haqidagi ma'lumotni taqdim etishni maxsus shakli sifatida ko'rib chiqishni anglatadi. Tilshunoslikda „matn“ atamasi keng doirada, jumladan og'zaki nutq namunalarida ham qo'llaniladi. Matnni idrok etish matn lingvistikasi va psixolingvistika doirasida o'rganiladi. R.Galperin matn xususiyatlari haqida to'xtalib o'tar ekan, unga quyidagicha ta'rif beradi. „ Matn bu yozma hujjat shaklida obyektivlashtirilgan, turli xil leksik, grammatik va mantiqiy bo'g'lanishlar bilan birlashtirilgan bir qator bayonotlardan tashkil topgan, axloqiy xarakter, pragmatik munosabat va shunga mos ravishda adabiy qayta ishlangan ma'lum bir xususiyatlarga ega bo'lgan yozma xabardir“.

K.M.Abdullayevning fikricha : „Matn- ikki yoki undan ortiq mustaqil gaplardan iborat bo'lgan, ichki xususiyatlariga ega bo'lib murakkab sintaktik butunlikdir. Ammo gaplarni tasodifiy yig'indisi hali matn degani emas, aniqrog'i, yaxlit bir butunlikni yuzaga keltirmaydi. O'ziga xos takrorlanmaydigan matnni shakllantiruvchi qandaydir tamoyillar bo'lishi lozim.

Ozaybayjonlik tilshunos K.N.Veliyev matnlarni mikromatnlar va makromatnlar kabi ikki guruhga ajratadi : ya'ni bir necha gaplarning o'zaro grammatik va mazmuniy bog'lanishidan tashkil topgan, mazmuniy yaxlitlikka ega bo'lgan qo'shma gaplarga nisbatan yirikroq yozma va og'zaki nutq parchasi mikromatn hisoblanadi. Bir umumiy mavzu ostida birlashgan bir necha mikromatnlardan tashkil topuvchi yaxlit asar makromatn deyiladi. Masalan, Abdulla Qahhorning „Bemor “ hikoyasida ishtirok etgan

barcha mikromatnlar „, Sotiboldining bemor xotinini da’volash ”umumiy mavzusi ostida birlashib, makromatnni hosil qilgan.

K.N.Valiyevning yozishicha : „Birinchisi darajali mikromatnlar murakkab sintaktik butunlikni, ikkinchisi bir nechta (ikki yoki undan ortiq) murakkab sintaktik butunlikni birlashtirgan yaxlitlikni uchinchi darajali mikromatnlar esa alohida bayon etilgan fikr yoki boblarni qamrab oladi. Makromatn esa butun bir asardir”.

Matnning juda ko’p tiplari mavjuda bo’lib, ulardan biri tasviriy matndir. Bunday matn tinglovchiga noma’lum bo’lgan biror kishi, joy, hayvonot va nabodot olamiga mansub mavjudot va qandaydir narsa-buyum hamda voqea-hodisani ba’tafsil tasvirlab berish maqsadida tuzilgan bo’ladi. Tasviriy matnda ham monologik nutq ko’rinishi yetakchilik qiladi. Partonimik tasvir bunday matnning eng xarakterli xususiyati hisoblanadi. Ya’ni, tasvirlanayotgan obyektning dastlab, birlamchi xususiyati tilga olinadi. Keyin unga aloqador xususiyatlar va qismlar haqida so’z yuritiladi. Masalan : Yakan degan o’simlik bo’ladi. Nima uchundir san’atkorlar, aniqrog’i otarchilar pulni „yakan” deyishadi. Aslida esa yakan- qamishzorda o’suvchi o’simlik. Yakanni o’rib, quritib uzum osadilar yoki savat qalpoq to’qiydilar. Ma’lumki, qamish uzun, yakan esa aksincha, pastak o’simlik. Shunday bo’libdiki, bir kuni yakan qamishga qarab:

-O’, birodar, hadeb g’o’ddayaverma, salgina egil. Allohning quyoshi nuridan biz ham bahramand bo’laylik,-debdi.

Qamish unga qarasaki ham kelmabdi, javob ham bermay burnini jiyirib qo’ya qolibdi. Vaqti – soati kelib avval qamishni, so’ng yakanni o’ribdilar. Tasodifni qarangki, shu uy to’sinlariga uzumlarni osibdilar, yakandan to’qilgan savat qalqoplarni esa devordagi qoziqlarga ilibdilar. Oradan kunlar o’tiveribdi. Qamish pastda, oyoq ostida, yakan esa tepada ekan. Oyoqosti bo’laverib xorlangan qamish axiyri yakanga qarab zorlanibdi: -meni o’rab olib quritdilar, tepkilab qovurg’alarimni sindirdilar, so’ng suvga bo’ktirdilar. So’ng qayirib-bukib mana shu bo’yra holiga keltirdilar. Bu ham yetmaganday sal qayirib, ostimga noslarini tupuradilar. Bu zorlanishni eshitib yakan debdikim: - Siz bekorga g’o’ddaydingiz. G’o’ddayib o’saverdingiz. Ichingiz g’ovak ekanini unutdingiz. G’ovak bo’lganingiz uchun ham tepkilashdan bo’lak narsaga yaramagingiz. (Tohir Malik)

Orol o’sha -o’sha. Uzoqdan turib qarasang, ko’z to’ymaydi. Ilon kabi buralib oquvchi daryo shu yerga kelganda ega ajralgan,, uch chaqirimdan so’ng yana birlashadi. Qo’sh kokil yanglig’ irmoq orasidagi orol esa yashnab turadi. Na’matak, yovvoyi jiyda, baqaterak joy talashgandek ayqash-uyqash bo’lib ketgan. Suvga egilib turgan jiyda barglari kumush kabi tovlanadi. Atrof sokinlik hukmida. Daryoning oqishi ham, oroldagi qalin daraxtzorning epkin tebranishi ham ulug’vor. (Tohir Malik)

Izoh mazmunli matnlar(argument matnlar). Bunday matnda aytilayotgan fikrning ishonarliligini ta’kidlash turli dalil va izohlar keltiriladi. Asoslash, isbotlash, o’zini oqlashga urinish yoki himoya maqsadda har xil vajlar keltirish izoh mazmunli matn tipining o’ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi. Fikr bilan keltirilgan dalil o’sstasida mantiqiy bog’liqlikning bo’lishi muhim sanaladi. Bunday matnda chunki, zero, lekin, aslida, shuning uchun,

to'g'risini(ochig'ini, rostini) aytganda, eshitishimga qaraganda, bilishimcha, taxminimcha kabi birliklar qo'llanganligini ko'ramiz. Masalan:

„-Bahor!

-Labbay, ustoz

-Senga Saddam bilan orangizda qanday farq borligini aytaymi?sizning o'rtangizda uchta farq bor.

-Ustoz! Saddam bilan meni nega qiyosladingiz? Qolaversa, uchta farq haqida ham qiziqib qoldim.

-Aytaman, Saddam bilan sening o'rtangdagi uch muhim farq quyidagilardir:1-si sen ayolsan, 2-sen Saddam kabi nafaqat arab,balki, kurd, arab va hindsan. Orangizdagi uch farq shulardir. Bunday qarashlaringni o'zgartir qizim.(Omina Shenliko'g'li)

Didaktik matnlar(eksplikativ matnlar). Kingadir pand- nasihat qilish, uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlarga xulosa chiqarishga o'rgatish istagi asosida xulosa chiqarishga o'rgatish istagi asosida tuzilgan matn didaktik matn deyiladi. Matnda muayyan maqsad bilan qo'llanilgan maqol, matal, aforizm, turli hayotiy voqealar, rivoyatlar, ,masallar – didaktema deyiladi. Didaktemalarning matn ichiga singdirilish tarzi turlicha bo'ladi. Muallif bunday didaktemalarni matnga to'g'ridan to'g'ri olib kiradi va qaysi janrga oid ekanligi aytib o'tadi.Masalan:„1. Qo'lingdan kelmaydigan ishga vada berma. Qo'lingdan keladigan ishga ham va'da berma. Qo'lingdan keladigan ishga va'da bersang uyatga qolasan. Qo'lingdan keladigan ishni esa, va'da bermasdan bajarsa ham bo'laveradi... 2. Yomonning yaxshisi bo'lgandan ko'ra yaxshining yomoni bo'l. Yomondan yomonlik yuqadi. Yaxshidan yaxshilik. 3. Hech qachon Osmonga tupurma! Osmon qahrli . Tupuging yuzingga qaytib tushadi! Hech qachon yerga ham tupirma! Yer mehrli: tupuging yuzingga sachramaydi. Ammo shu Yer seni ko'ksida ko'tarib yuradi! 4.Bu dunyoda hamma narsaning javobi bor, deydilar. To'g'rio gap, ammo bu dunyoda javob qilinmaydigan narsalar ham bo'ladi. Sen birpovga yaxshilik qilsang, javobini kutma. Undan qaytmasa, boshqadan qaytadi. Birov senga yomonlik qilsa javob berma. Sendan qaytmasa, boshqadan qaytadi.” O'tkir Hoshimov)

Xabar mazmunli matnlar (informativ matnlar). Biror bir voqea-hodisa haqida habar berish maqsadida tuzilgan yoki havola qilinga matn xabar mazmunli matn deyiladi. Bunday matnda informativlik o'ziga xos tarzda bo'ladi. Kundalik turmushdagi oddiy habardan tubdan farq qiladi. Badiiy matndagi xabar estetik maqsadga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Bunday xabar asarning butuniga aloqador bo'ladi. Hikoya, tasvir, izoh, didaktik, buyruq mazmunli matn tiplari tarkibida keladi. Masalan: „Shamol sharqdan esdi duguncha o'zi bilan akula korxonasinoing qo'lansa hidini olib kelardi, ammo bugun hid deyarli sezilmas, chunki shamol shimoldan esa boshlab, ko'p o'tmay, butunlay tingan edi. Shuning uchun ham Terras serquyosh va so'lim edi.” (Ernest Xeminguey)

Buyruq-istak mazmunli matnlar(inyunktiv matnlar). Buyruq- istak yoki maslahat ohangi yetakchilik qiladigan, buyruq maylidagi gaplardan tuzilgan, biror ishni bajartirish yoki turli ta'qiqlashlarni ifoda etadigan matn tipiga buyruq-istak mazzmunli matn

deyiladi. Asosan qahramon nutqida kuzatiladi. Lekin muallif nutqida istak, maslahat yoki tavsiya ma'nosida qo'llanilishi ham mumkin.,,Bunday qarashlarinni o'zgartiur qizim. Hech b ir irqni past sanama. Qolaversa, sen go'yo mutafakkir kishilardek bo'lmoqchi eding. Zolim bo'lish uchun davlat rahbari bo'lishingga hojat yo'q".

Hissiy ifoda mazmunli matnlar(ekspressiv matnlar). Insonning ichki kechinmalarini, voqelikka salbiy yoki ijobiy munosabatini, o'ziga xos pafos bilan ifodalagan matn hissiy ifoda mazmunli matn deyiladi.Masalan:,, Ertta tongda havo harorati minus 20 gradus bo'lsada, kunning o'rytasiga kelib, tomdan tomchilar tusha boshladi. Bu mkun ertalabdan to tungacha billurday yaltirab gulladi, yoshardi. Qayinlar go'yoki qor bilan naqshlanganday kechgacha goh binafsharang, goh moviy ranglarda nurlanib turdi. Osmonda oqish oyning o'rog'i uzoq vaqtgacha qalqib turdi, ufqda esa ranglar qarchalanib-parchalanib ketdi. Borliqqa kirib kelgan bahorning birinchi kunida hammasi ajoyib edi.(Mixail Prishvin)

Tabiiyli, har qanday butunlik kabi matn ham uni tarkib toptiruvchi unsurlardan, muayyan birliklardan iborat bo'ladi. Tilshnoslikda qanday birliklar matnni shakllantirishi yoki matnni bo'laklarga ajratganda qanday birliklar aynan matn birligio deb hisoblanishi borasida ancha-muncha muzokaralar mavjud. Bir qarashda matn birliklarini tayin etish, belgilash u qadar ham qiyin ish emasday tuyiladi. Ammo aslida unday emas, shuning uchun ham bu masalada matn lingvistikasi tadqiqotchilari orasida juda ko'p va farqli qarashlar mavjud. Biz matnga ta'rif berganda, ikki asosiy belgiga, ya'ni bog'lanishlilik va yaxliylikka alohida e'tibor berdik. Tabiiyki, bog'lanishlilik va yaxlitlik gaplar o'rtyasida va gaplarning mazmuniy-grammatik birligi asosida yuzaga keladi. Deyarli barcha matn tadqiqotchilari bu ikki belgini hech vaqt nazardan qochirgan emas. Ayniqsa, g'arb tilshunoslari tomonidan matngfa berilgan ta'riflar

Da gaplarning ketma-ket bog'lanishi gaplar zanjiri matnda asosiy jihat ekanligi, busiz matn yuzaga kela olmasligi muntazam ta'kidlanadi. Masalan, golland tilshunosi S.Dik ,, Gaplarning zanjirida koordinatsiyaning oliy shakli "ni ko'radi. Boshqacha qilib aytganda, mustaqil gaplarning oliy darajadagi koordinatsiyasi (albatta, muayyan axborotni ifodalash maqsadi bilan) mahsuli o'laroq matn shakllanadi. Oliy darajadagi koordinatsiya, aniqki, ayni matn deyiladigan butunlik, yaxlitlikni paydo qiladigan gaplar o'rtasidagi barcha jihatlarda, ya'ni semantik, sintaktik, kommunikativ, estetik va yana boshqa barcha jihatlarda uyg'unlikdir, muvofiqlashuvdir. Gaplarning ana shunday o'zaro uyg'unligi, muvofiqlashuvining natijasi sifatida matn mavjuda bo'ladi. Ana shunday birinchi va ikkinchi mulohazadan kelib chiqib, matnning asosiy birligi gapdir degan xulosaga kelish mumkin. Ammo gapni matn birligi sifatida baholash tilshunoslikda u qadar keng tarqalgan emas. Aksincha, bu borada bahsli yondashuv anchagina. Matn juda keng qamrovli tushuncha bo'lganligi sababli hali uning muayyan tan olingan ta'rifi mavjud emas. Tilshunoslikda matnga katta e'tibor qaratadilar(biz buni yuqorida ko'rib o'tdik) va izlanishlar davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <http://www.ziyouz.com>
2. O'tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar.-Toshkent,<<Sharq>>,2005
3. Tohir Malik. Mehmon tuyg'ular.-Toshkent,<<Sharq>>,2000
4. Omina Shenliko'g'li. Mingboshining qizi.-Toshkent ,<<Zukko kitobxon>>,2021
5. Ernest Xeminguey.Chol va Dengiz,-Toshkent,<<O'zbekiston milliy ensiklopediyasi>>,2018
6. Abdullayev A. O'zbek tilida supersintaktik butunliklar.-Toshkent,NDA.,1997
6. Abdurahmonov G'.,Mamajonov N. O'zbek tili va adabiyoti.-Toshkent,<<O'zbekiston>>,1985

Salijanovna, I. S., Sherbabayevna, H. Q., Rahmanova, M. Y., Nabibullayevich, X. F., & O'G'Li, A. I. N. (2022). O'SIB KELAYOTGAN YOSH AVLODGA TA'LIMIY VA DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI TA'LIM BERISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *Science and innovation*, 1(B3), 18-22.

Mirzakhililovich, Y. M., Nabibullaevich, K. F., & Abdulazizovna, K. B. (2021). Ecological-geographical distribution of aphids (homoptera aphidinea, aphididae) in the Fergana valley.

Юнусов, М. М., & Хабибуллаев, Ф. Н. (2021). Қаттиққанотлиларни йиғиш ва улардан коллекциялар тайёрлаш. *Scientific progress*, 1(4), 103-107.

Хабибуллаев, Ф., Осбаев, М. У., & Маматкулова, М. Т. (2017). Особенности иммунной системы слизистой оболочки тонкой кишки. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (4-6), 137-141.

Xabibullayev, F. (2022, December). THE HISTORY OF THE ORIGIN OF THE ART OF STATUS AND TODAY. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 157-158).

Хабибуллаев, Ф. Н. (2019). Охрана и использование полезных насекомых. *Молодой ученый*, (21), 55-58.

Хабибуллаев, Ф. Н. ҲАШАРОТЛАРНИ ОДАМ ВА ТАБИАТ ҲАЁТИДАГИ РОЛИ. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ Заҳрирдин Муҳаммад Бобур номидаги Андижон давлат университети, 197.